PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI
ISSN: 3060-4923 Impact Factor –7,212

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Qayimova Adiba Abdug'affor qizi
Alfraganus universiteti
Ijtimoiy fanlar fakulteti magistranti
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20492562

O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasini isloh qilishning chuqur jarayonlari kechmoqda. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi 2022—2026" hamda "Oliy ta'limni 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi" pedagogik ta'limning yangi paradigmasini shakllantirish uchun strategik asos yaratdi.

Mazkur me'yoriy-huquqiy hujjatlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, davlat pedagogik ta'limni isloh qilishda bir necha ustuvor yo'nalishlarni belgilagan: kadrlar tayyorlash sifatini oshirish; xalqaro standartlarga muvofiq ta'lim dasturlarini ishlab chiqish; zamonaviy pedagog kompetensiyalari tizimini shakllantirish; tadqiqotchilik yo'nalishini kuchaytirish; raqamlashtirish jarayonlarini tezlashtirish. Bu yo'nalishlarning barchasi bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish bilan chambarchas bog'liq.

O'zbekiston Respublikasining pedagogik ta'lim tizimi bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun bir qator muhim imkoniyatlarga ega.

Birinchidan, normativ-huquqiy asoslarning shakllanishi. So'nggi yillarda qabul qilingan me'yoriy hujjatlar pedagogik ta'limning innovatsion rivojlanishi uchun mustahkam huquqiy zamin yaratdi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Pedagogik ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bo'lajak o'qituvchilar tayyorlash sifatini oshirishning konkret mexanizmlarini belgilab berdi.

Ikkinchidan, oliy ta'lim muassasalari tarmog'ining kengayishi. Hozirgi paytda mamlakatimizda 30 dan ortiq pedagogik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalari faoliyat ko'rsatmoqda. Bu mamlakatning barcha hududlarida bo'lajak o'qituvchilar tayyorlash uchun keng infratuzilmaviy bazani ta'minlaydi va viloyatlardagi pedagogik kadrlar yetishmovchiligini bartaraf etishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik. O'zbekistonda bir qator xorijiy universitetlarning filiallari faoliyat ko'rsatmoqda. Mahalliy oliy ta'lim muassasalari ham jahonning yetakchi pedagogika universitetlari bilan akademik aloqalarni faollashtirmoqda. Mazkur jarayonlar nafaqat bo'lajak o'qituvchilarga xalqaro tajriba bilan tanishishga, balki global ta'lim makonida raqobatbardosh kasbiy malakalarni shakllantirishga ham imkon yaratadi.

To'rtinchidan, raqamli infratuzilmaning rivojlanishi. "Raqamli O'zbekiston 2030" strategiyasi doirasida ta'lim sohasini raqamlashtirish jadal sur'atlarda olib borilmoqda. HEMIS tizimi, milliy elektron ta'lim platformalari, raqamli kutubxonalar bo'lajak o'qituvchilar uchun zamonaviy ta'lim resurslarini taqdim etmoqda.

Raqamli infratuzilmaning rivojlanishi pedagogik ta'lim uchun quyidagi yangi imkoniyatlarni ochmoqda: masofaviy va aralash ta'lim shakllarini keng joriy etish; virtual pedagogik laboratoriyalar va simulyatorlardan foydalanish; sun'iy intellektga asoslangan adaptiv ta'lim tizimlarini qo'llash; xalqaro onlayn kurslar va resurslardan foydalanish; talabalarning o'quv jarayonini real vaqtda monitoring qilish; innovatsion baholash texnologiyalarini (e-portfolio, video-tahlil) joriy etish. Mazkur imkoniyatlardan to'liq foydalanish bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini sifat jihatdan yangi darajaga ko'tarishi mumkin.

Beshinchidan, ilmiy-tadqiqot salohiyatining kuchayishi[1]. Mamlakatimiz pedagogika fanida bir qator e'tirof etilgan ilmiy maktablar shakllangan. Pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti, oliy ta'lim muassasalari kafedralari faoliyatida ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish masalasiga oid tadqiqotlar olib borilmoqda.

Ilmiy-tadqiqot salohiyatining kuchayishi bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish sohasida chuqurroq empirik tadqiqotlar olib borish, mahalliy pedagogik amaliyotga mos innovatsion metodikalar yaratish va ularni tadbiq etish imkonini bermoqda. Respublika miqyosida o'tkazilayotgan ilmiy-amaliy anjumanlar, pedagogik tadqiqotlar bo'yicha grantlar tizimi va xalqaro hamkorlik dasturlari mazkur salohiyatni yanada kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Yuqoridagi imkoniyatlar bilan bir qatorda, bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda bir qator jiddiy muammolar va to'siqlar mavjud.

Birinchidan, an'anaviy pedagogik paradigmaning ustuvorligi. Ko'pgina oliy ta'lim muassasalarida hali ham bilim berishga yo'naltirilgan, reproduktiv yondashuv ustun. Talabalarning faolligini, mustaqilligini va ijodiy izlanishini rag'batlantiruvchi pedagogik usullar yetarli darajada qo'llanilmaydi.

Bunday vaziyatning sabablari ko'p qirrali xarakterga ega: birinchidan, o'qituvchilarning aksariyati o'zlari an'anaviy paradigmada tayyorlangan va innovatsion yondashuvlarni amalga oshirish uchun yetarli kasbiy malakaga ega emaslar; ikkinchidan, mavjud o'quv rejalari va dasturlari hali ham asosan kontent-yo'naltirilgan tarzda tuzilgan; uchinchidan, baholash tizimi reproduktiv ko'rsatkichlarga yo'naltirilgan; to'rtinchidan, ma'muriy boshqaruv tizimi ko'pincha o'qituvchilarning innovatsion tashabbuslarini rag'batlantirmaydi yoki hatto cheklaydi.

Ikkinchidan, o'qituvchilar tarkibining kasbiy o'sishidagi muammolar. Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida ishlovchi professor-o'qituvchilarning bir qismi zamonaviy pedagogik texnologiyalar, raqamli vositalar va innovatsion yondashuvlar bo'yicha qo'shimcha tayyorgarlikka muhtoj.

Mazkur muammoning yechimi pedagog-kadrlarning malaka oshirish tizimini tubdan takomillashtirishni talab etadi. Zamonaviy malaka oshirish kurslari nafaqat nazariy bilim berish bilan cheklanmasligi, balki amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga, o'qituvchining shaxsiy pedagogik amaliyotini tahlil qilishga va innovatsion yondashuvlarni real darslarda sinab ko'rishga yo'naltirilishi kerak.

Uchinchidan, metodik ta'minotning yetishmasligi. Amaldagi metodik qo'llanmalar va o'quv-uslubiy majmualar ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish nuqtai nazaridan yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

To'rtinchidan, baholash tizimining kamchiliklari. Talabalarning bilim va malakalarini baholashda asosan reproduktiv ko'rsatkichlar (test natijalari, og'zaki javoblar) hisobga olinadi. Ijodiy faoliyat, mustaqil tadqiqot, original yechimlar yetarli darajada baholanmaydi.

Beshinchidan, moddiy-texnik bazaning yetarli emasligi. Bir qator hududiy oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy pedagogik laboratoriyalar, simulyatsion sinflar, ijodiy ustaxonalar mavjud emas yoki yetarli darajada jihozlanmagan.

Yuqoridagi tahlil asosida bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning quyidagi strategik yo'nalishlarini belgilash mumkin.

Birinchi yo'nalish — pedagogik ta'limning paradigmaviy yangilanishi. Bilim berishga yo'naltirilgan an'anaviy paradigmadan kompetensiyalarga asoslangan, shaxsga yo'naltirilgan, tadqiqotchilik xarakteridagi yangi paradigmaga izchil o'tish zarur. Mazkur o'tish davlat ta'lim standartlari, o'quv rejalari, dasturlar va metodik ta'minotning kompleks qayta ko'rib chiqilishini talab etadi.

[1]Mirsoatova Sh.B. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy ijodkorligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari: ped. fan. ... fals. dokt. (PhD) diss. avtoref. — Toshkent, 2021. — B. 18.

Ikkinchi yo’nalish — innovatsion pedagogik texnologiyalarning keng joriy etilishi. Muammoli ta’lim, loyihali ta’lim, holat-tahlil, interaktiv usullar, "aylanma sinf", aralash ta’lim kabi zamonaviy texnologiyalarni pedagogik ta’lim amaliyotiga tizimli ravishda joriy etish lozim. Bu maxsus o‘qituvchilar tayyorlash kurslari, metodik seminarlar, master-klasslar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Uchinchi yo’nalish — raqamli ta’lim muhitining rivojlantirilishi. Zamonaviy raqamli ta’lim platformalari, virtual laboratoriyalar, interaktiv simulyatorlar, ta’limiy AI vositalarini pedagogik ta’limga keng joriy etish lozim. Bunda raqamli vositalardan oqilona, pedagogik jihatdan asoslangan tarzda foydalanish tamoyiliga rioya qilish muhim ahamiyatga ega.

To’rtinchi yo’nalish — pedagogik amaliyotni takomillashtirish. Bo’lajak o‘qituvchilarning ta’lim muassasalaridagi amaliyotini ijodiy yo’naltirilgan tarzda tashkil etish kerak. Bunga uzluksiz amaliyot tizimini joriy etish, amaliyot davomida ijodiy loyihalarni amalga oshirish, mentorlik tizimini rivojlantirish kiradi.

Beshinchi yo’nalish — ilmiy-tadqiqot faolligini rag'batlantirish. Talabalarning ilmiy konferentsiyalarda ishtirok etishi, ilmiy maqolalar yozishi, tadqiqot loyihalarini amalga oshirishi uchun keng imkoniyatlar yaratish lozim. "Talaba-tadqiqotchi" kontseptsiyasi pedagogik ta’limning yetakchi tamoyillaridan biriga aylanishi kerak.

Mazkur yo’nalishning amalga oshirilishi quyidagi konkret chora-tadbirlarni nazarda tutadi: bo’lajak o‘qituvchilar uchun maxsus ilmiy-tadqiqot dasturlarini ishlab chiqish; talaba ilmiy jamiyatlarini faollashtirish; pedagogik tadqiqotlar uchun grantlar va stipendiyalar tizimini joriy etish; talabalarning ilmiy ishlarini chop etish uchun maxsus jurnallar va to’plamlarni nashr etish; xalqaro ilmiy konferentsiyalarda ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish.

Oltinchi yo’nalish — xalqaro hamkorlikni chuqurlashtirish. Jahonning yetakchi pedagogika universitetlari bilan akademik almashinuv dasturlarini kengaytirish, qo’shma ta’lim dasturlarini joriy etish, xorijiy ekspertlarni jalb etish — bo’lajak o‘qituvchilarning ufqlarini kengaytirish va xalqaro tajribani qabul qilish uchun muhim ahamiyatga ega.

Yettinchi yo’nalish — baholash tizimini takomillashtirish. An'anaviy reproduktiv baholashdan kompleks, kompetensiyalarga asoslangan baholashga o’tish zarur. Bunga portfolio asosida baholash, formativ baholash, ijodiy mahsulotlarni ekspert baholash usullari kiritilishi lozim.

Zamonaviy baholash tizimi quyidagi tamoyillarga asoslanishi kerak: kompleksligi (talabaning bilim, malaka va shaxsiy fazilatlarini birgalikda baholash); davomiyligi (baholash o‘quv jarayonining barcha bosqichlarida amalga oshiriladi); shaffofligi (baholash mezonlari va natijalari talabaga aniq va tushunarli); rivojlantiruvchi xarakteri (baholash nafaqat o’lchaydi, balki talabaning kasbiy o’sishini rag'batlantiradi).

Sakkizinchi yo’nalish — pedagog-kadrlarning kasbiy o’sishini ta'minlash. Pedagogika oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarining muntazam malaka oshirish, ularni zamonaviy pedagogik texnologiyalar, raqamli vositalar va innovatsion yondashuvlar bilan tanishtirish — pedagogik ta’lim sifatini oshirishning hal qiluvchi sharti hisoblanadi.

Yuqoridagi yo’nalishlarning amalga oshirilishi natijasida shakllanadigan "Yangi avlod o‘qituvchisi" modeli quyidagi muhim xususiyatlarga ega bo’lishi kerak: chuqur kasbiy bilim va keng dunyoqarash; rivojlangan ijodiy salohiyat va kreativ tafakkur; yuqori kommunikativ kompetentlik va emotsional intellekt; zamonaviy raqamli vositalardan oqilona foydalanish kompetensiyasi; tadqiqotchilik faoliyatiga moyillik va ko’nikma; o‘z-o‘zini takomillashtirishga doimiy intilish; milliy qadriyatlarni va jahon tajribasini uyg'unlashtira olish qobiliyati.

Mazkur model — XXI asr ta’lim talablariga javob beradigan kompleks pedagog obrazidir. U faqat fan o‘qituvchisi emas, balki talabaning shaxsiy rivojlanishini ta'minlovchi, kasbiy yo’lda yo’nalish beruvchi mentor, ijodiy salohiyatni qo’llab-quvvatlovchi va har bir talabaning individual xususiyatlarini hisobga oluvchi pedagog hisoblanadi. Yangi avlod o‘qituvchisi raqamli muhitda erkin

harakat qiladi, an'anaviy va innovatsion metodlarni mahorat bilan uyg'unlashtiradi va o‘z faoliyati natijalarini doimiy tahlil qilib, kasbiy o’sishni davom ettiradi.

"Yangi avlod o‘qituvchisi" modelini amalga oshirishda esa quyidagi bosqichli yondashuvni tavsiya etish maqsadga muvofiq. Birinchi bosqich (1-2 yil) — tizimli diagnostika va rejalashtirish: mavjud holatni baholash, ehtiyojlarni aniqlash, ustuvor yo’nalishlarni belgilash. Ikkinchi bosqich (2-4 yil) — pilot loyihalar va sinov: tanlov tariqasida bir necha muassasada yangi yondashuvlarni joriy etish, natijalarni monitoring qilish va muvofiqlashtirish. Uchinchi bosqich (4 yildan keyin) — kengaytirish va institutsionalizatsiya: samarali natijalar bergan yondashuvlarni barcha muassasalarga tarqatish va ularni davlat siyosati darajasida mustahkamlash.

Bosqichli yondashuv O‘zbekiston pedagogik ta’limining islohini izchil, ilmiy asoslangan va amalda samarali tarzda amalga oshirishga imkon beradi. Har bir bosqichda erishilgan natijalarning doimiy monitoring qilinishi va zarur hollarda strategik tuzatishlar kiritilishi esa islohot jarayonining moslashuvchanligi va samaradorligini ta'minlaydi.

Aynan shunday yangi avlod o‘qituvchisi mamlakatimiz ta’lim tizimining innovatsion taraqqiyotini ta'minlay oladi va kelajak avlodning kreativ shaxs sifatida shakllanishiga o‘z hissasini qo’sha oladi.

Foydalanmilgan Adabiyotlar ro’yhati

1. "Ta’lim to’g'risida"gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. ORQ-637-son. 23.09.2020-y. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi (Lex.uz). — URL: https://lex.uz/docs/5013007 (murojaat sanasi: 15.03.2026).
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to’g'risida"gi Farmoni. PF-5847-son. 08.10.2019-y. // Lex.uz. — URL: https://lex.uz/docs/4545887 (murojaat sanasi: 20.03.2026).
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022—2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g'risida"gi Farmoni. PF-60-son. 28.01.2022-y. // Lex.uz. — URL: https://lex.uz/docs/5841063 (murojaat sanasi: 25.03.2026).
4. Sayidaxmedov N.S. Bo’lajak o‘qituvchilarning kreativ kompetentligini shakllantirish // Pedagogik mahorat. — Toshkent, 2021. — №3. — B. 24–29.
5. Abdullayeva Sh.A. Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda raqamli kompetensiyalarni shakllantirish // Pedagogika. — Toshkent, 2023. — №6. — B. 35.